

7-sonli ilova

“Uzbekistan Airways”

AJ Yagona aksiyadorining 2019 yil “18”  
oktabr kungi 4-sonli qarori bilan  
“TASDIQLANDI”

**“UZBEKISTAN AIRWAYS” AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**ICHKI NAZORAT BO`YICHA**  
**YO`RIQNOMA**

**Toshkent - 2019**

## **I. Umumiy qoidalari**

1. Ushbu “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik Jamiyatining ichki nazorat Yo`riqnomasi (kelgusida – Yo`riqnomasi) O`zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi (kelgusida –Qonun), boshqa qonunchilik-normativ bayonnomalari, korporativ boshqaruv Kodeksining tavsiyalari (31.12.2015y. kungi 9-solli bayonnomasi), “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati (kelgusida Jamiat) va Jamiatning boshqa ichki hujjaligiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Yo`riqnomasi Jamiatning ichki nazorat tizimining maqsadi va vazifalarini, ishlash tamoyili, tarkibiy qismini, shuningdek ichki nazorat uchun mas`ul shaxslarni va Jamiat organini belgilaydi.

3. Ushbu Yo`riqnomasi Jamiatda ichki nazorat va xatarlarni boshqarish, barcha aksiyadorlarning huquqlarini va manfaatlarini, shu jumladan minoritar himoya qilish maqsadida ishlab chiqarilgan.

4. Mazkur Yo`riqnomasi Jamiat boshqaruv a`zolari, mansabdar shaxslari va xodimlari uchun rivoja etilishi shart.

## **II. Ichki nazorat tizimining tamoyillari**

5. Jamiatda ichki nazorat tizimi quyidagi asoslarda qurilgan:

6. Uzliksiz ravishda ishlash – ichki nazorat tizimining doimiy va lozim darajada ishlashi, Jamiatni qoidalardan har qanday og`ib ketish aniqlashga va ularni kelajakda paydo bo`lishini xabardor etadi;

7. Ichki nazorat tizimini barcha ishtirokchilarini hisoboti - har bir shaxsning bajargan ishi sifatining nazorati, ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat etiladi;

8. Vazifalarni taqsimplanishi – Jamiat nazorat vazifalarini qaytarilishiga yo`l qo`ymaslikka intiladi va bu vazifalar shunday taqsimplanishi kerakki, bir shaxsning o`zi belgilangan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisoblash, aktivlarni saqlanishini ta`minlash va ularni qayta ro`yxatdan o`tkazish bilan bog`liq vazifalarni birlashtirmasligi lozim;

9. Operatsiyalarni lozim darajada ma`qullash va tasdiqlash – Jamiat vakolati shaxslarning tegishli vakolati doirasida ularning moliyaviy-xo`jalik operatsiyalarini tasdiqlashni belgilash uchun intiladi;

10. Jamiatni har kuni ichki nazoratni amalga oshiruvchi qismlarini tashkiliy ajratish va uning audit bo`yicha qo`mita orqali kuzatuva kengashiga bevosita funksional javobgarligi;

11. Jamiatda ishlovchi ichki nazoratni barcha subyektlarining nazorat vazifalarining lozim darajada bajarilishini ma`suliyati;

12. Jamiatning barcha bo`linmalari va xizmatlarini ichki nazoratni aniq o`zaro aloqalari asosida amalga oshirish;

13. Muntazam rivojlanish va takomillashish – Jamiat ichki nazorat tizimini takomillashtirish va kengaytirish, yangi masalalarni hal etishni hisobga olgan holda moslashishi mumkin bo`lgan egiluvchan tizimni sozlash shartlarni ta`minlashga intiladi;

14. Og`ib ketish haqidagi xabarni o`z vaqtida yetkazish – Jamiatda og`ib ketishni bartaraf etish haqidagi qaror qabul qiluvchi taalluqli shaxslarga xabarlarni yetkazish uchun eng qisqa

muddat belgilangan;

15. Ichki nazorat tizimi va nazorat obyektlarini murakkabligi orasidagi mosligi;

16. Jamiyat faoliyatini sohasining nazoratni sozlanadigan – ichki nazorat tizimi qamrab olgan, hattoki ularni ishlash samaradorligi (“xarajatlar-iqtisodiy samara” nisbati)ni o’lchash qiyin bo’lsa-da, eng muhim strategik yo’nalishlar ajralib chiqadi;

17. Ichki nazoratni turli xildagi obyektlariga ichki nazorat kompleks ravishdagi tabiatи.

### **III. Ichki nazorat tizimining tarkibiy qismi**

18. Ichki nazorat tizimi o’z ichiga quyidagi o’zaro bog’liq tarkibiy qismlarni olgan:

19. Nazorat muhiti o’zining ichiga Jamiyatning xodimlar malakasi va etnik qimmatini, rahbarlar siyosati, rahbarlar tomonidan vakolati va javobgarligini taqsimlash usullari, tashkilot tuzilmasi va xodimlarni malakasini oshirish, shuningdek kuzatuv kengashi tomonidan rahbarlik va boshqarishni olgan.

20. Xatarlarni baholash – bu har xil darajadagi va ichki izchillikda bir-biri bilan bo’lgan muayyan vazifalarni bajarishda tegishli xatarlarni aniqlash va tahlil qilish.

21. Rahbariyat ko’rsatmalari, siyosat va rasmiy marosimlarni birlashtiruvchi va tekshirish o’tkazish, amaldagi faoliyatni nazorati, aktivlar xatarsizligini kafolati va vakolatlarni taqsimlashga rozilik va ruxsat berish kabi turli xildagi harakatlarni o’z ichiga olgan faoliyat bajarilishini kafolatlashga yordam beradi.

22. Ma’lumot bilan ta’minalash va almashish faoliyati, ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali aniqlashga, ularni ro’yxatga olishga va ularni almashtirishga yo’naltirilgan, Jamiyatda ichki nazorat siyosati va rasmiy marosimlarini tushunish, ichki nazoratni barcha subyektlarda shakllantirish va ularni bajarilishini ta’minalash maqsadida, shu jumladan ma’lumot almashishning samarali kanallarini tashkil qilishni o’z ichiga olgan.

23. Monitoring – vaqt o’tishi bilan tizim ishining sifatini baholovchi nazorat va boshqaruva amallarini o’z ichiga olgan jarayon. Ichki nazorat tizimini baholash moliyaviy hisobotni aniqligiga ta’sir ko’rsatuvchi xatolarni paydo bo’lishini belgilash va qo’yilgan vazifalarni bajarish ichki nazorat tizimini qobiliyatini belgilash uchun o’tkaziladi.

### **IV. Xavf-xatarlarni baholash**

24. Jamiyat faoliyatida o’ziga xos aniq xatarlarni baholash, nazorati va boshqarish, Jamiyatning ichki hujjatlaridagi belgilangan bajariladigan ish tartibiga muvofiq Jamiyatning boshqaruva organlari va tizimli bo’linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Jamiyat boshqaruva organi, nazorat organi va tizimli bo’linmalari orasidagi xatarlarni tezkor va strategik boshqaruvi uchun ma’lumotlarni samarali almashishni qo’llaydi.

26. Korporativ boshqaruva kodeksining tavsiyasiga ko’ra kuzatuv kengashi audit bo’yicha quyidagilarni amalga oshiruvchi qo’mita tashkil etishi mumkin:

- ichki nazorat va xatarlarni boshqarish tizimini samaraliligi va ishonchliligi, shu jumladan Jamiyat ichki nazorat va xatarlarni boshqarish proseduralarining samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo’yicha takliflarni tayyorlash;

- Ichki nazorat va xatarlarni boshqarish sohasidagi tahlil va bajarish siyosatini baholash.

## **V. Ichki nazorat tizimida bajariladigan ish tartibi**

27. Ichki nazoratda bajariladigan ish tartibi – bu ichki nazorat uchun mas’ul bo’lgan, Jamiyatning maxsus tizimli bo’linmasi, boshqaruv organi, ichki nazorat organi, shuningdek, Jamiyatning mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarni va Jamiyat moliyaviy-xo’jalik faoliyatini amlaga oshirishda Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlari, qonunchilikni buzilishini aniqlashga qaratilgan, Jamiyat tomonidan qo’yilgan maqsadlarni bajarilishini baholash, shuningdek ichki nazorat jarayonini tatbiq etish jarayonida ichki nazorat subyektlarini o’zaro harakatining majmuidir.

28. Ichki nazoratda bajariladigan ish tartibi Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq Jamiyatning barcha boshqaruv darajasida amalga oshiriladi va quyidagilarni ko’zda tutadi:

- Jamiyat boshqaruving turli darajalarida o’zaro bog’langan va zid bo’lmagan maqsad va vazifalarni belgilash;
- vakolat va mas’uliyatni chegaralash;
- Jamiyat maqsadlarini amalga oshirishga halaqit beradigan potensial xatarlarni aniqlash va tahlil etish;
- Jamiyat tizimli bo’linmalarini samarali o’zaro hamkorligini ta’minlash;
- Jamiyat boshqaruv organi va nazorat organini samarali o’zaro hamkorligini ta’minlash;
- samarali axborot almashishni tashkil etish, shu jumladan Jamiyatning faoliyati haqidagi operatsiyalar, moliyaviy va boshqa ma’lumotlar mazmunga ega bo’lgan hisobotlar va xabarlarni shakllantirish;
- Jamiyatning uchinchi shaxslar bilan samarali o’zaro hamkorligini ta’minlash;
- ichki nazorat sohasini Jamiyat xodimlarining majburiyatlariga kiritishni yetkazish;
- Jamiyat tizimli bo’linmalarining ishini samardorligini baholash va mezonlarini belgilash;
- hodisalar, operatsiyalar va tranzaksiyalarni hisobga olishning yetarli usullaridan foydalanish;
- Jamiyatning aktivi va mulkclarini saqlanishini tekshirish;
- faqat yetarli vakolatga ega bo’lgan shaxslar tomonidan operatsiyalarni tasdiqlash va amalga oshirish;
- Jamiyat xodimlari orasida muhim vazifalarni taqsimlash (shu jumladan operatsiyalarni maqullash va tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, berish, saqlash va resurslarni qabul qilish, operatsiyalarni tekshirish va tahlil qilish);
- ichki nazorat jarayonini kerakli tarzda hujjatlashtirish;
- ichki nazorat jarayonini samaradorligini doimo baholash.

29. Ichki nazorat jarayoni quyidagilar bo`lishi mumkin:

- ogohlantiruvchi – nomaqlu hodislarni bo’lishiga yo’l qo’ymaslik;
- aniqlovchi (topilishi) – sodir bo’lgan nomaqlu hodislarni aniqlash uchun;
- direktivli – ko’ngildagi hodisani sodir bo’lishiga yordam ko’rsatuvchi;
- to’g’rilovchi – nomaqlu hodisa sodir bo’lganida oqibalarining ta’sirini yo’qotish;

- badal to'lovchi – mavjud nazorat vositalarini zaif tomonlarini to'ldiruvchi.

30. Jamiyatda ichki nazorat jarayonlari o'z ichiga quydagilarni oladi, shu jumladan:

- kelishmoq – tegishli vakolatga ega bo'lgan, boshqaruvning turli qismlari va darajalaridagi xodimlar tomonidan hujjatlarni maqullah;

- avtorlashtirilgan – xodimlar tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsat olish;

- taqqoslash – turli manbalardan olingen ma'lumotlarni to'liqligi, aniqligi, zid bo'lмаганлиги va xushmuomilaligini, shu jumladan buxgalterlik hisoboti moddalari, hisobot tizimi, Jamiyatning hisobot ko'rsatkichlari va uning kotragentlarini tekshirish;

- arifmetik nazorat – hisob-kitoblarni arifmetik to'g'rilingini, shu jumladan moliyaviy, buxgalteriya va boshqa hujjatlarda nazorat summasini hisoblash;

- og'ish tahlili – raqiblarni faoliyatini natijalari, oldingi davr ko'rsatkichlari, prognози hamda rejalarini bajarilishini reja ko'rsatkichlari bilan solishtirish asosida belgilangan rejalar va bajarilgan rejalarining natijasining darajasini baholash;

- aktivlarni saqlashni jismoniy nazorati – aktivlarga, binolarga, hujjatlarga jismoniy kirishni chegaralash, aktivlarni saqlash joylarini tegishli jihozlash, material javobgarlik haqida shartnomalar tuzish;

- inventarizatsiya – Jamiyat aktivlarini saqlanishi va buxgalteriya hisobotini ishonchlilagini ta'minlash maqsadida haqiqatdagi mavjud bo'lgan aktivlarni sifat tavsifi va aniqlanishi;

- axborot texnologiyalari (kompyuter nazorati) umumiyligi va maxsuslashtirilgan boshqarish tartibi – kirish, ko'rsatkichlarni yaxlitligi, axborot tizimiga o'zgarishlarni kiritilishi va boshqalar. nazorati.

31. Aniq nazorat bajariladigan ish tartibini mazmuni boshqarish va funksional yo'naliш darajasiga bog'liq bo'lib, Jamiyatning maqsadiga va tizimli bo'linmalarning vazifasiga muvofiq, tizimli bo'linmalar tomonidan ishlab chiqariladi va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan ishlab chiqiladi.

32. Ichki nazoratni bajariladigan ish tartibini takomillashtirish va monitoringi, bajarilishi, hujjatlashtirish, tatbiq qilish, ishlab chiqarish vazifalari Jamiyat tizimli bo'linmalarining yo'riqnomalarida va Jamiyat xodimlarini yo'riqnomalarida mustahkamlanadi.

## **VI. Jamiyatning ichki nazorat tizimini ishlab turishini tashkil etish**

33. Ichki nazorat vazifalarini hal etish kuzatuv kengashi, audit bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasining, taftish komissiyasi, ichki audit xizmati, korporativ maslahatchi (mavjud bo'lsa), ijro organi, shuningdek Jamiyatning barcha xodimlari va mansabdor shaxslarining (kelgusida ichki nazorat subyektlari) birlikdagi zo'r berishishi va samarali o'zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

34. Ichki nazorat tizimi funksional ravishda ushbu yo'naliшlar bo'yicha bo'linadi:

- **nazorat qilish**, Jamiyat amaldagi faoliyatini amaldagi Qonunchilik, normativ bayonnomalar, Jamiyatning Nizomi va ichki hujjatlarining talablariga muvofiqligini kuzatish asosiy vazifalariga kiradi;

- **ichki audit**, Jamiyat tizimli bo'linmalari, uning filiallarini faoliyatini va ular tomonidan xo'jalik operatsiyalarini o'tkazilishini nazorat qilishni amalga oshirish, asosiy vazifalaridan hisoblanadi;

- **xatarlarni boshqarish**, Jamiyat faoliyatiga hamrox bo`lgan xatar (potensial va real)larni aniqlash, ularni tahlili va real xatarlarni oqibatlarini bartaraf etish, kelib chiqishini oldini olish uchun tavsiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek Jamiyat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash asosiy vazifalaridan biridir.

35. Jamiyatda quyidagi ichki nazorat organlari faoliyat ko`rsatadi:

- Taftish komissiyasi;
- Ichki audit xizmati;
- Korporativ maslahatchi (mavjud bo`lsa).

36. Korporativ boshqarish kodeksining tavsiyasiga muvofiq doimiy ichki nazoratni amalga oshirish Jamiyatning bo`linmalari bilan hamkorlikda va ichki audit xizmatiga yuklanadi.

37. Jamiyatda ichki audit xizmati mayjud bo`lmagan taqdirda joriy ichki nazoratni amalga oshirish Jamiyatning taftish komissiyasiga yuklatiladi.

38. Jamiyatda Jamiyat faoliyatini ichki nazoratini amalga oshiruvchi, alohida maxsus tizimli bo`linma (kelgusida – vakolatli tizimli bo`linma) tashkil etiladi.

## **VII. Ichki nazorat uchun mas`ul shaxslar va organlar**

39. Jamiyat faoliyatining ichki nazorati Jamiyatning kuzatuv kengashi, audit bo`yicha kuzatuv qo`mitasi, taftish komissiyasi, ichki audit xizmati (yoki Jamiyatning vakolatli tizimli bo`linmasi), korporativ maslahatchi (mavjud bo`lsa), ijro organi, shuningdek, Jamiyatning xodimlari va mas`ul shaxslari tomonidan barcha bosqichlarda va bunda har biri ichki nazoratni u yoki boshqasiga mas`ul bo`lgan shaxslar amalga oshiriladi.

40. **Jamiyatning kuzatuv kengashi** ichki nazoratga asosan Jamiyatning siyosatini ichki nazorat tizimini rivojlantirish yo`nalishlari va strategiyasini, ichki nazorat tizimini tashkil etish yo`llari va bajariladigan ish tartibini hamda xatarlarni boshqarishni belgilaydi.

Ichki nazorat tizimini tashkil etish yo`llari va bajariladigan ish tartibini belgilashda kuzatuv kengashi ushbu tizimdagи quyidagi masalalarga tayanadi:

- 1) Jamiyatning maqsadlariga erishishda mulohazali ishonchni ta`minlash;
- 2) samarali moliyaviy-xo`jalik faoliyatini ta`minlash va resurslardan tejaml foydalanish;
- 3) shunday xatarlarni aniqlash va boshqarish;
- 4) Jamiyatning aktivlarini saqlanishini ta`minlash;
- 5) buxgalteriya (moliyaviy), statistik, boshqaruv va boshqa hisobotlarni to`liqligini va ishonchlilikini ta`minlash;
- 6) qonunchilikka amal qilinishi nazorati, shuningdek, Jamiyatning ichki siyosati, reglamenti va bajariladigan ish tartibi.

Ichki nazoratni amalga oshirish uchun kuzatuv kengashini huquqlari, vazifalari va mas`uliyati, aksiyadorlar umumiy yig`ilishi tasdiqlaydigan, **Jamiyat kuzatuv kengashining Yo`riqnomasida** belgilanadi.

### **Kuzatuv kengashi:**

- ichki audit xizmati haqidagi qoidalarni tasdiqlaydi;
- korporativ maslahatchi haqidagi qoidalarni tasdiqlaydi;
- Ichki nazorat aniq bajariladigan ish tartibini, Jamiyatning normativ hujjatlarini

tasdiqlaydi;

- Jamiyatning real va potensial xatarlarini aniqlash, ularni oldini olish va xatarlarni boshqarish bo'yicha Jamiyatning ichki hujjatlarini tasdiqlaydi;
- Jamiyatning tizimli bo'linmasini tuzilmasi va tarkibini, ichki nazorat bajariladigan ish tartibini belgilaydi, doimo ichki nazorat bajariladigan ish tartibini nazorat qiladi va doimo takomillashtiradi;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan hodisalarda, Jamiyatning hamkor shaxslarini hisobga olish tartibi va hamkor shaxslar bilan bitimlarni takomillashtirishga muvofiq hamkor shaxslar bilan bitimlarni amalga oshirishni ma'qullaydi;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish tartibiga muvofiq, Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qiladi;
- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq Jamiyatning boshqa bitimlari va operatsiyalarini maqullaydi;
- Jamiyatning ijro organining hisobotlari har chorakda eshitiladi, shu jumladan, bajarilgan ish tartibida ichki nazoratga Jamiyat tomonidan rioya qilinishi;
- ichki nazorat tizimida aniqlangan xatoliklarni bartaraf qilinishini nazorat qiladi;
- har yili Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumi yig'ilishida ichki nazorat tizimini samaradorlik va ishonchligini baholash hamda o'tkazilgan tahlillarni natijasi haqida ichki nazorat uchun javobgar Jamiyatning ijro organi, ichki audit xizmati, taftish komissiyasi rahbarlarining doimiy hisobotlari, Jamiyatning tashqi auditorini hisoboti va boshqa manbalardan ma'lumotlar hamda ichki nazoratning barcha aspektlari bo'yicha o'z kuzatishlaridan, shu jumladan moliyaviy nazorat, operatsiyaviy nazorat, qonunchilikka rioya etilishini nazorati, ichki siyosat va bajarilgan ish tartibini nazoratiga asoslangan holda Jamiyat aksiyadorlariga ma'lumot beradi;

Aksiyadorlarni yillik umumi yig'ilishidagi kuzatuv kengashining hisoboti Jamiyat ichki nazorat tizimini holati haqidagi ma'lumotdan iborat bo'lishi kerak.

Ichki nazoratni samaradorlik mexanizmini tatbiq etish maqsadida ***korporativ boshqarish kodeksining tavsiyasiga*** muvofiq:

- Kuzatuv kengashi haqidagi Yo'riqnomada uning tarkibiga mustaqil a'zolarni kiritish talabi aks ettirilgan;
- Kuzatuv kengashiga qonunchilik va aksiyadorlarning umumi majlisi tomonidan barcha aksiyadorlarga bu haqidagi ma'lumotni oshkor qilib, faqatgina belgilangan me'yorlarda xayriya (sponsorlik) yoki beminnat yordam berish haqida tartib, berish (olish) shartlari va qaror qabul qilish huquqlari berilgan;
- Kuzatuv kengashi nizom jamg'armasida Jamiyatning ulushlari bo'lgan korxonalarning boshqaruvi organlarida Jamiyat nomidan uning vakillari ovoz berish tartibini belgilaydi;
- Kuzatuv kengashi doimo Jamiyatning ijro organidan bajarilgan ishlar haqida hisobotlarni va kuzatuv kengashi nizom jamg'armasida Jamiyatning ulushlari bo'lgan korxonalarning faoliyati bo'yicha erishgan ko'rsatkichlarini hisobotini topshirishni talab qiladi.

41. Jamiyatning moliyaviy hisobotini ishonchligi va to'liqligi, mustahkamligi va Jamiat xatarini boshqarish tizimini va ichki nazorat tizimini samaradorligining nazorati butunlay audit bo'yicha kuzatuv kengashining qo'mitasi zimmasiga yuklatiladi.

Ichki nazoratni amalga oshirish kuzatuv kengashining qo'mitasi zimmasidagi huquqlar, majburiyatlar va javobgarlik, kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan, ***audit bo'yicha qo'mita haqidagi Yo'riqnomasida*** belgilanadi

***audit bo'yicha kuzatuv kengashining qo'mitasi*** ichki nazoratni amalga oshirish uchun quyidagilarni bajaradi:

- Jamiyatning bajariladigan ish tartibini ichki nazoratini doimo ko'rib chiqadi, tahlil qiladi va Jamiyatning moliyaviy hisobot qismiga Jamiyat samarali bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini baholaydi;
- tashqi auditni o'tkazilishini hamda bajarilgan auditorlik tekshirishlari sifati va Jamiyatning tashqi auditorini xulosalarini baholash bo'yicha nazorat qiladi;
- Jamiyatning tashqi auditori va ichki audit xizmati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni samaradorligini ta'minlaydi;
- yaxlitligicha ichki nazorat tizimini va xatarlarni boshqarish tizimini nazoratini amalga oshiradi;
- Jamiyatning kuzatuv kengashini o'z vaqtida ichki nazorat tizimida aniqlangan ahamiyatli xatoliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarning rejalarini va natijalari haqida ogohlantiradi.
- ichki nazoratni takomillashtirish bo'yicha tavsynomalarini ishlab chiqadi.

Audit bo'yicha kuzatuv kengashining xatarlarni boshqarish jarayoni doirasida:

- xatarlarni boshqarish jarayonini umumiy moslashtirish;
- xatarlarni boshqarish jarayonini ta'minlash sohasidagi uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- Jamiyatning xatarlar portfelini tahlili va tegishli xatarlarni boshqarishga nisbatan resurslarni qayta taqsimlash va munosabat bildirish strategiyasi bo'yicha takliflarni ishlab chiqarish.

**42. *Korporativ boshqaruv tavsiyalariga muvofiq*** ichki bajarilgan ish tartibini xolisona baholashni amalga oshirish maqsadida audit bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasining tarkibiga kuzatuv kengashi a'zolari qo'shiladilar.

**43. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va uning ajratilgan bo'linmalarini ustidan kelgusi davriy nazoratni amalga oshirish ichki nazoratni doimiy harakatdagi organi - taftish komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.**

Jamiyat tomonidan bajarilgan ishlar tartibining ichki nazoratiga amal qilish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida belgilanadigan taftish komissiyasi haqidagi Yo'riqnomada belgilanadi.

Bajarilgan ish tartibini ichki nazoratiga Jamiyat rionda etishi bo'yicha nazorat qilishning quyidagi funksiyalarini taftish komissiyasi bajaradi:

- Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati asosiy yo'nalishlari bo'yicha davriy (yillik) tekshirishlar va bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini o'tkazadi;
- Jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyatini asosiy yo'nalishlari bo'yicha tekshirish natijalarini, shu jumladan bajarilgan ish tartibini ichki nazoratga riona qilinishini tahlil qiladi va birlashtiradi;
- Audit bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasi va ijro organining rahbarlari bajarilgan ish tartibini ichki nazorati bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni va bunday kamchiliklarni bartaraf etilgani va bartaraf etilmaganligini natijasi haqida ma'lumot beradi;
- Audit bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasi bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini takomillashtirish bo'yicha takliflarni kiritadi;

- har chorakda kuzatuv kengashining majlislariga hamkor shaxslar bilan mavjud bitimlari bo'yicha xulosalari yoki Jamiyatning hisobot davridagi yirik bitimlari, qonunchilik talablariga va Jamiatning ichki hujjatlari, shuningdek, bunday bitimlarni bajarish uchun Jamiatning ichki hujjatlari va qonunchilik talablariga, shu jumladan bajarilgan ish tartibini ichki nazorati Jamiat tomonidan rioya etilishi haqida xulosa taqdim etadi.

44. Jamiatning amalga oshirilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari va uning ajratilgan bo'linmalari ustidan **kelgusi davriy** nazoratni amalga oshirish uchun ichki nazoratni doimiy harakatdagi organi - taftish komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

Jamiatning amalga oshirilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari va uning ajratilgan bo'linmalari ustidan **kelgusi davriy** nazorati, shuningdek buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni to'liqligi va ishonchlilik mas'uliyati, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiatning Nizomiga muvofiq ichki audit xizmatiga yuklatiladi.

Ichki audit xizmatining huquqlari, majburiyatlari va ma'suliysi Jamiat bajarilgan ishlar tartibini ichki nazoratiga rioya qilishda Jamiat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan, ichki audit xizmati haqidagi yo'riqnomada belgilanadi.

**Jamiatning ichki audit xizmati** Jamiat tomonidan bajarilgan ish tartibini ichki nazoratiga rioya qilish bo'yicha quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ichki nazorat tizimi bajariladigan ish tartibini tatbiq etadi;
- ichki nazorat tizimi bajariladigan ish tartibini bajarilishini nazorat qiladi;
- ichki nazorat tizimi bajariladigan ish tartibini samaradorligini, to'liqligini va mosligini baholashni amalga oshiradi;
- Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini asosiy yo'naliishlari bo'yicha doimiy joriy tekshirishlar tashkil qiladi va o'tkazadi;
- Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini asosiy yo'naliishlari bo'yicha tekshirish natijalarini, shu jumladan bajarilgan ish tartibini ichki nazoratiga rioya etilishini tahlil etadi va birlashtiradi;
- ichki nazorat tadbirlari o'tkazilganda Jamit tizimli bo'linmalarini ishini muvofiqlashtiradi;
- aniqlangan bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini buzilishi, shu jumladan Jamiatning ichki normativ hujjatlarini bajarmasliklik (samarasiz bajarish)ni hisobini olib boradi;
- audit bo'yicha qo'mita va ijro organining rahbarini aniqlangan bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish haqidagi takliflarning natijasi va yoki shunga o'xhash xatolarni bartaraf eta olmaslik haqida ma'lumot beradi;
- taftish komissiyasning tekshirish natijalarini tahlil etadi, taftish komissiyasining tekshirishlari davomida aniqlangan xatolarni bartaraf etish uchun tadbirlar ishlab chiqarish va bajarilishini nazorat qiladi;
- auditorlik tekshirish natijalarini tahlil etadi, auditor tekshirishlari davomida aniqlangan xatolarni bartaraf etish uchun tadbirlar ishlab chiqarish va bajarilishini nazorat qiladi;
- bajarilgan ish tartibi ichki nazorati bo'yicha takliflarni tayyorlaydi.

Ichki audit xizmati xatarlarni boshqarish jarayoni doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- xatarlarni boshqarish jarayoni sohasida uslubiy hujjatlarni ishlab chiqarishni ta'minlash;

- bajarilgan ish tartibi ichki nazorati va xatarlarni boshqarish jarayoni sohasida Jamiaty ishchilarini o'qitishni tashkil qiladi;
- xatarlar bo'yicha taqqoslash hisobotini shakllantiradi;
- Jamiatning bo'linmalari tomonidan xatarlarni boshqarish jarayonini va belgilangan tartibda Jamiat nazorati ostidagi korxonalarini tezkor nazorati;
- Jamiatning kuzatuv kengashi va ijro organiga, xatarlarni boshqarish jarayonini samaradorligi hamda xatarlarni boshqarish sohasidagi siyosatda ko'zda tutilgan boshqa masalalar bo'yicha tayyorgarlik va ma'lumot berish.

Bajarilgan ish tartibining ichki nazoratiga rioya qilishga nazorat o'tkazishda boshqa nazorat organlari, boshqaruv organlari, tizimli bo'linmalari va Jamiatning mansabdar shaxslari bilan o'zaro hamkorlikda, o'zining faoliyatini amalga oshirish uchn zarur bo'lgan ma'lumotni va hujjatlarni belgilangan tartibda oladi.

**Korporativ boshqaruvi kodeksining tavsiyasiga muvofiq** Jamiatning ichki audit xizmati, 50% dan ortiqroq nizom kapitali Jamiatga tegishli bo'lgan, jismoniy shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan ichki nazoratini amalga oshirish vakolati beriladi.

45. Jamiatda korporativ qonunchilikka rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirish, Jamiatning kuzatuv kengashiga hisobot beruvchi korporativ maslahatchisi zimmasiga yuklatiladi.

Korporativ maslahatchining ichki nazorat bo'yicha vazifalari, huquqlari, majburiyatlar va mas'uliyati, Jamiatning kuzatuv kengashida tasdiqlangan **korporativ maslahatchisi haqidagi Yo'riqnomada** belgilanadi.

#### **Korporativ maslahachisi (mavjud bo'lsa)**

- Jamiatning aksiyadorlarini manfaatlari va qonuniy huquqlariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- Jamiat boshqaruv organi tomonidan korporativ bajariladigan ish tartibiga rioya qilishni nazorat qiladi va kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilik, Jamiatning Nizomi va kuzatuv kengashining majlislarini o'tkazish, Jamiat haqida ma'lumot oshkora qilish (berish) haqidagi, bajariladigan ish tartibi masalalariga oid boshqa ichki hujjatlari talablari haqida tushuntirishlar beradi;
- qonunchilik talablari, Jamiatning Nizomi va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlarni umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik va o'tkazish ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- qonunchilik talablari, Jamiatning Nizomi, kuzatuv kengashi haqidagi Yo'riqnomada va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq, kuzatuv kengashining majlisiga tayyorgarlik va o'tkazish ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- ma'lumotni oshkor qilishda qonunchilikka rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- korporativ boshqarish kodeksining tavsiyalariga rioya qilish nazoratini amalga oshiradi;
- korporativ qonunchilik, shuningdek Nizom va Jamiatning ichki hujjatlariga rioya qilishda yo'l qo'yilgan aniqlangan barcha xatoliklar bo'yicha darhol kuzatuv kengashini xabardor qiladi.

46. Jamiat ichki nazorat tizimini ishlab turishi uchun tashkil qilish va zaruriy sharoitlarni saqlab turish mas'uliyati tasdiqlangan kuzatuv kengashi siyosatiga muvofiq **ijro organining rahbari** zimmasiga yuklatiladi.

Bajarilgan ish tartibini ichki nazoratini amalga oshirish uchun ijro organining vazifalari, huquqlari, majburiyatlar va mas'uliyati aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan

*Jamiyatning ijro organi haqidagi Yo`riqnomasida* belgilanadi.

**Ijro organing rahbari:**

- ichki nazorat tizimini tashkil etish sohasida kuzatuv kengashining qarorlarini bajarilishini ta`minlaydi;

- xatarlarni boshqarish va ichki nazoratning aniq bajariladigan ish tartibi bo`yicha, Jamiyatning tizimli bo`linmalari rahbarlari orasida vakolati, majburiyati va mas`uliyatini taqsimlaydi.

- ichki nazoratning ish tartibi tatbiq qilishni tashkiliy ta`minlaydi;
- Jamiyatning tizimli bo`linmalarida tekshirish rejalarini tasdiqlaydi;
- xizmat tekshiruvini o`tkazish haqidagi buyruqlarni qabul qiladi;
- tekshiruv va xizmat tekshiruvlari natijalarini ko`rib chiqadi va tahlil etadi;
- ichki nazorat ish tartibini amalga oshirish vaqtida aniqlangan xatolarni bartaraf etilishini ta`minlaydi;
- ichki nazorat ish tartibini takomillashtirish bo`yicha kuzatuv kengashiga takliflar kiritadi.

Jamiyatning ijro organi quydagi joriy nazoratni ta`minlashi kerak:

- Jamiyatning tizimli bo`linmalari rahbarlarining harakatlari ustidan;
- faoliyatni amalga oshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun va kelgusida ularga yo`l qo`ymaslik uchun o`z vaqtida chora ko`rish.

**47. Ijro organi rahbarlarining o`rinbosalari va tuzilmaning bo`linma rahbarlari (mansabdor shaxslar) va Jamiyatning har qanday darajadagi xodimlari** ularga ishonib topshirilgan faoliyat sohasidagi ichki nazorat ish tartibini tatbiq etishga o`zining funksional vazifalariga muvofiq javobgardirlar.

**Tuzilma bo`linmalari rahbarlari va Jamiyat xodimlari o`z vakolatlari doirasida:**

- ichki nazoratni amalga oshirish uchun strategiyani mukammal ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadilar;
- ichki nazorat ish tartibini ishlab chiqish, hujjatlashtirish, yuritish, rivojlantirish va monitoringini amalga oshiradi;
- ichki nazorat ish tartibini bajarilishini amalga oshiradi;

Jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlarini majburiyatlariga, o`z vakolati doirasida, standartga mos kelmaydigan holatlarni hal etish va paydo bo`lgan muammolarni chorasi topish. Muhim masalalar yoki aniq bir bitim bo`yicha yoki bajarilgan ish tartibida xatarlar paydo bo`lsa, xodimlar Jamiyatning yuqori rahbariyatiga xabar beradilar.

Jamiyat tuzilma bo`limalarining rahbarlari xodimlarning o`z xizmat vazifalarini bajarishda o`z rahbarligidagi tizimli bo`linma xodimlarining harakatlari ustidan joriy nazoratni amalga oshirilishni ta`minlashi kerak.

Jamiyat barcha darajada va barcha funksiyalarida xodimlar o`zining xizmat vazifalarini bajarishda o`z harakatlarini mustaqil ravishda nazorat qilib, o`zlarining xizmat vazifalarini va ichki tartib-qoidalarida ko`zda tutilgan ichki nazorat tartib qoidalariga rioya qilishlari kerak.

Jamiyatning huquqiy bo`limi, tuzilma bo`linmalarini faoliyatini, huquqiy qo`llash yo`li bilan, amaldagi qonunchilikda Jamiyatning amaliy faoliyatini muvofiqligi bo`yicha joriy nazoratni ta`minlashi kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo`yicha tuzilma bo`linmalarining rahbari tarmoq

manbalari va ilova ma'lumotlar bazalariga, shuningdek ma'lumot va virus xatarsizligiga kirish huquqiga rioya qilishni ta'minlashi kerak.

Xatarlarni boshqarish tizimi doirasida Jamiyatning ijro organi korrupsiyaga, Jamiyatning obro'-e'tiborni tushirish xatari va mansabdar shaxslarni pora berib sotib olgani uchun javobgarlik choralarini ko'rilib xatariga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan kompleksni oldindan nazarda tutishi kerak.

Ichki nazorat tizimi doirasida va xatarlarni boshqarishda ijro organi Jamiyatning har qanday xodimi ijro organi yoki boshqaruv organining har qanday a'zosi tomonidan qonunchilikni, ichki ish tartibi, etnik tartib va qoidalarni buzayotganligini xatarsiz, maxfiy va hammabop usul (qaynoy tarmoq) da kuzatuv kengashi, audit bo'yicha kuzatuv kengashi qo'mitasi, ichki audit xizmatiga xabar berishini tashkil etishi kerak.

Tegishli ma'lumotni yetkazgan shaxs, har qanday bosim (shu jumladan ishdan bo'shatish, ta'qib qilish, kamshitish, tahqirlash)ni shakllaridan himoya qilinishi lozim.

Qaynoq tarmoq bo'yicha shuningdek ichki nazorat va xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ham kelib tushishi mumkin.

#### ***Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyanomasiga muvofiq:***

- Jamiyatning ijro organi aksiyadorlarni umumiyligiga, ijro organi yirik bitimlar va hamkorlar bilan kelishuvlarni mustaqil tuzish uchun, Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan bitim bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish uchun kiritadi;
- Ijro organi aksiyadorlarni umumiyligining qaroriga ko'ra, mustaqil professional tashkilotlar-maslahatchilarni jalb qilgan holda Jamiyatni rivojlanish maqsadi loyihamarini va yillik biznes-jarayonlarni muvofiqlik tahlilini tashkil etadi.

### **VIII. Jamiyat ichki nazorat organlari a'zolarini tarkibi va malakasiga talablar**

48. Jamiyat ichki nazorat organlari a'zolarini tarkibi va malakasiga talablar, Jamiyatning ichki nazorat organining faoliyatini tartibga soluvchi va Jamiyatning aksiyadorlarni umumiyligiga qo'shitish yoki kuzatuv kengashi tasdiqlagan tegishli ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

49. Jamiyat ichki nazorat organlari a'zolariga talablar kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan, audit bo'yicha qo'mita haqidagi Yo'riqnomada belgilanadi.

Audit bo'yicha kuzatuv kengashi tarkibiga, Jamiyatning kuzatuv kengashi haqidagi Yo'riqnomalariga muvofiq kuzatuv kengashi tarkibiga kiruvchi kuzatuv kengashi a'zolari, majburiy tartibda kiritilishi kerak.

Audit bo'yicha qo'mita tarkibidagi bir kishidan kam bo'limgan mustaqil a'zolari buxgalteriya (moliyaviy) hisobotini tayyorlash, tahlil qilish, baholash sohasi bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak.

50. Ichki nazorat organlarining a'zolari tarkibiga kiruvchi shaxslarga qo'shimcha talablar audit bo'yicha kuzatuv kengashini qo'mitasi tomonidan belgilanishi mumkin.

51. Jamiyat ichki nazorat tizimining lozim darajada ishlab turishi, shuningdek, Jamiyat mansabdar shaxslari va xodimlarining o'z kasbining ustasi ekanligiga ham bog'liqdir.

Jamiyat xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, o'qitish, xoimlarni tayyorlash va xizmati bo'yicha martabasini oshirish tizimini ularni yuqori malakasi va etnik standartlariga rioya qilishni ta'minlaydi.

### **IX. Jamiyat ichki nazorat organini aksiyadorlarning umumiyligini majlisi, kuzatuv kengashi,**

## **minoritar aksiyadorlar qo`mitasi va Jamiyat aksiyadorlari bilan o`zaro hamkorlik tartibi**

52. Jamiyatning ichki nazorat tizimini samarali ishlashini ta`minlash va butun ichki nazorat ish tartibiga rioya qilinishiga rioya etish maqsadida ichki nazorat organi ichki nazoratni amalga oshirish jarayonida Jamiyatning boshqaruv organi, Jamiyat aksiyadorlari hamda Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari bilan hamkorlikda ishlaydilar.

